

Uzbekistan Airways reysi haqida ma'lumot

2023 8 September

HY9813 Toshkent – Moskva yo'nalishidagi qatnovi texnik sabablarga ko'ra uchib ketish aeroportida (Toshkent) kechiktirildi.

Aviakompaniya texnik mutaxassislari tomonidan havo kemasini parvozga qo'shimcha tayyorlash ishlari olib borildi. Parvozning umumiy kechikish vaqti 5 soatu 20 daqiqani tashkil etdi, aviaqatnov Toshkent vaqti bilan soat 05:05 da o'z manzili bo'ylab jo'nab ketdi.

Kutish davomida yo'lovchilarga issiq ovqat va ichimliklar taqdim etildi. Noqulayliklar uchun uzr so'raymiz!